

Azizbek NAZAROV

O'ZBEKISTON MILLIY ARXIVIDAGI
TURKISTON ILMIY JAMIYATLARI
FONDLARI HUJJATLARI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

NAZAROV AZIZBEK YOQUBJONOVICH

O'ZBEKISTON MILLIY ARXIVIDAGI TURKISTON
ILMIY JAMIYATLARI FONDLARI HUJJATLARI
(XIX ASR IKKINCHI YARMI-XX ASR BOSHLARI)

TOSHKENT
“TAMADDUN”
2023

Nazarov A.Yo.

O'zbekiston Milliy arxividagi Turkiston ilmiy jamiyatlari fondlari
hujjatlari (XIX asr ikkinchi yarmi—XX asr boshlari) [Matn]: Monografiya
A.Yo. Nazarov, —T.: "TAMADDUN", 156 b.

Mas'ul muharrir:

Z.A. Saidboboyev - tarix fanlari nomzodi, professor

Taqrizchilar

B.E. Ergashev - *tarix fanlari doktori, professor*

N.M. Mirzayev - *tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

Dunyo miqyosida arxiv ma'lumotlarini hujjatshunoslik hamda arxivshunoslik
nuqtai nazaridan o'rGANISH hamda ulardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash
shuningdek, hujjatshunoslik, arxivshunoslik, raqamli arxivlarning shakllanisl
bosiqchilari, arxiv fondlari, yig'majildlardagi hujjatlarning o'rGANILISHiga doir ilmiy
amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Monografiyada O'zbekiston Milliy arxividagi Turkistonda faoliyat yuritgan
ilmiy jamiyatlarning fondlari hamda Rossiya imperiyasi mustamlakasi davrida
yaratilgan tadqiqotlar, sovet davrida yozilgan ilmiy asarlar va mustaqillik
yillaridagi ilmiy izlanishlarga doir ma'lumotlar asosiy manba bo'lib xizmat qildi.

Monografiya Rossiya imperiyasi tarixi bilan qiziqqan kitobxonlarga
mo'ljalangan bo'lib, O'zbekiston Milliy arxividagi Turkistonda faoliyat yuritga
ilmiy jamiyatlarga tegishli fondlar yig'majildaridagi hujjatlarni o'rGANUVCHILIGA
uchun ahamiyatli hisoblanadi.

*Ushbu monografiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Ilmiy-texm
kengashining 5-sonli bayomomasi (2023 yil 24-may) qarori asosid
nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN 978-9943-9746-0-9

"TAMADDUN", 2023

SO‘Z BOSHI.....	4
I BOB. TURKISTONDA ILMIY JAMIYATLARNING SHAKLLANISHI VA O‘RGANILISH TARIXI	
I.1. Turkistondagi ilmiy jamiyatlarning vujudga kelishi va faoliyati.....	7
I.2. Muammoning tarixshunoslik masalalari.....	31
II BOB. O‘ZBEKISTON MILLIY ARXIVIDAGI TURKISTON ILMIY JAMIYATLARI FONDLARI HUJJATLARI	
II.1. Tarixiy tadqiqotlar bilan shug‘ullangan jamiyatlar fondlari.....	45
II.2. Ilmiy jamiyatlar hujjatlarining tasnifi, turlari va holati.....	57
III BOB. ILMIY JAMIYATLAR FAOLIYATIGA OID FONDLARNING HUJJATLARI VA ULARNING MAZMUNI	
III.1. Ilmiy jamiyatlarning arxeologik tadqiqotlarga doir hujjatlari.....	71
III.2. Tarixiy va etnografik tadqiqotlar aks etgan hujjatlar.....	85
III.3. Hujjatlarda o‘lkaning geografiyasi va topografiyasi.....	104
XULOSA.....	122
FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR	
RO‘YXATI.....	125
ILOVALAR.....	140
SHARTLI QISQARTMALAR.....	153

SO‘ZBOSHI

Dunyo miqyosida arxiv ma’lumotlarini hujjatshunoslik hamda arxivshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish jarayonida arxivlarning raqamlashtirilishi orqali hujjatlardan foydalanish imkoniyatini yaxshilash, shuningdek, hujjatshunoslik, arxivshunoslik, raqamli arxivlarning shakllanish bosqichlari, arxiv fondlari, yig‘majildlardagi hujjatlarning o‘rganilishiga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishga qaratilgan strategik dasturlarni ishlab chiqish, arxivlar va ish yuritish muassasalari faoliyatining huquqiy asoslarini takomillashtirish, arxivlarning moddiy-texnik bazasi va infratuzilmasini yanada modernizatsiya qilish, arxiv faoliyatiga yang innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish, arxiv fondi hujjatlarini raqamlashtirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda tarix fanini rivojlantirishda arxivshunoslik, arxiv manbashunosligi, hujjatshunoslik sohalarini takomillashtirish, bu borada hujjatlarning tarixiy manbaviy ahamiyatini aniqlash, tarixiy hujjatlarning raqamli nuxxalarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Yangi O‘zbekistonni barpo etish – yaqin va olim tariximiz, betakror va noyob madaniy boyliklarimizni yanada chuqu o‘rganib, ularga tayanib, mustaqil milliy taraqqiyot yo‘limizni yang bosqichda davom ettirish demakdir¹”. Bu borada mustamlaka dav tarixini aks ettirgan arxiv hujjatlarini xolisona tahlil etish, Rossiya imperiyasining Turkistonda mustamlaka davri boshqaruviga doi tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta’minlashda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20 sentabrdagi PF-5834-soni “O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishi va ish yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 28 yanvardag

¹ Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaly ishlar mamlakatiga aylanmoqda // <https://president.uz/uz/lists/view/4547>

PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019 yil 20 sentabrdagi PQ-4463-son “O‘zbekiston Respublikasi “O‘zarxiv” agentligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 19 martdagi VM-174-son “Arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixini o‘rganishda Turkiston general’-gubernatorligi davri turli xil ma’lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi. Xususan, O‘zbekiston Milliy arxivida saqlanayotgan Turkistondagi ilmiy jamiyatlar tarixiga oid fondlar hujjatlarining mazmunini ochish hamda klassifikatsiya qilish orqali Turkiston general-gubernatorligida faoliyat yuritgan ilmiy jamiyatlarning tarixiy, etnografik, arxeologik, geografik va topografik tadqiqotlariiga doir faoliyatini o‘rganish mumkin.

O‘zbekiston Milliy arxivining Turkistonda faoliyat yuritgan ilmiy jamiyatlarga tegishli I-69, I-71, I-103, I-361, I-591-fondlar 450 ta yig‘majildni tashkil etadi. Ularda 1867–1917 yillarga doir ilmiy jamiyatlar yig‘ilishlarining bayonnomalari, yillik hisobotlar, nizomlar, ekspeditsiyalar haqidagi ma’lumotlar, o‘zaro yozishmalar, turli tadqiqotlar va xaritalar mavjudligi monografiyada arxiv hujjatlari asosida to‘liq oshib berilgan. Bu esa keyinchalik ushbu davr bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchilar uchun yo‘lko‘rsatgich bo‘la oladi. Chunki ishda ilmiy jamiyatlar faoliyati aks etgan asosiy arxiv hujjatlari manbashunoslik jihatidan tahlil qilingan.

Hozirga qadar arxiv manbashunosligi bo‘yicha ko‘pgina tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu monografiyada Turkiston ilmiy jamiyatlari fondlaridagi Rossiya imperiyasining o‘lkada mustamlakachilik siyosatini olib borishdagi vositachiligi aks etgan markaziy hukumat va mahalliy idoralarning hujjatlari muassasalar

faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlar tarzida jamlanganlig ochib berilgan.

Shuningdek, arxiv manbalari asosida Sharqshunoslik institutini ochishiga ziyolilar tomonidan bo'lgan harakatlar, asosan Turkiston-general gubernatorligi viloyatlari aholisining yashash sharoiti va mashg'ulotlari, ijtimoiy ahvoli o'rGANILIB, o'lkada ta'lIM, til va madaniy siyosatni olib borishda mahalliy xalq uchun faqat quyidagi ta'limning yetarli ekanligi va shu bilan chegaralaganligi yoritilgan.

Ushbu monografiyadagi arxiv evristikasi nuqtai nazaridan o'lkasning tarixiga oid aniqlangan qimmatli ma'lumotlar va natijalardan Turkiston-Rossiya imperiyasi tarixi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish, oliy va o'rta maxsus ta'lIM tizimidagi o'quv muassasalarining ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarida mustamlaka davri bo'yicha kurslarning tashkil etish uchun, o'quv qo'llanmalar yaratish va metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

I.1. Turkistondagi ilmiy jamiyatlarning vujudga kelishi va faoliyati

Rossiya imperiyasi O'rta Osiyo hududida o'zining yangi mustamlakasiga ega bo'lgandan so'ng, mustamlakachilik tizimini mustahkamlash maqsadida o'lkanning tarixini o'rganishga kirishadi. Bu maqsadda avvalo Rossiya imperiyasining ilm-fan markazlaridan o'lkaga tashrif buyurgan tadqiqotchilar faoliyat yuritgan bo'lsa-da, keyinchalik mahalliy ma'muriyat yordamida tashkil etilgan turli ilmiy jamiyatlar bu vazifani bajargan.

Ushbu jamiyatlar orqali sezilarli foyda kelsa, yoki mustamlakalashtirishning yaqin masalalariga mos natijalarini ko'ra olishsagina markazdan mablag' ajratishgan. Ko'plab jonkuyar tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarini ko'pincha o'zlarining mablag'lari evaziga olib borishgan. Ko'p hollarda tadqiqot ko'lmini qisqartirishgan va bu umumiy ilmiy tadqiqotlarning ahamiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

O'lkada faoliyat yuritganlarning ko'pchiligi ishlaridan bo'sh vaqtlarida, uyda va xizmat safarlarida, ta'til vaqtida ular o'z kuchlarini ilmiy izlanishlarga, sayohatlarga, yig'ilgan ma'lumotlarni qayta ishlashga sarflashgan. Mana shu tarzda ular o'lkani o'rganishga kirishib, markazdan kelgan olimlar bilan bir qatorda Turkiston haqidagi ilmiy qarashlarning kengayishiga yordam berishgan.

Ko'rsatib o'tish joizki, ilk paytlarda Turkistonda laboratoriya ham, ilmiy tashkilotlar yoki jamiyatlar ham bo'lmagan. Bundan kelib chiqadiki, mahalliy olimlarning izlanishlariga tizimli ko'rinish berish, ularni bir maqsadga birlashtirish, fikr almashish markazi mavjud bo'lmagan.

Tabiiyki ana shunday sharoitda mahalliy kuchlarning o'lkani o'rganishdagi ishtiroki alohida olimlarning shaxsiy harakati va qiziqishlariga to'liq bog'liq bo'lgan. Odatdagi ilmiy muloqot o'rmini uy "to'garaklari" egallagan. Misol tariqasida "Xomutov to'garagi" ni

aytishimiz mumkin. U yerda XIX asrning 70-80 yillarda Toshkentda yashovchi iqtidorli va o‘qimishli muxojir olimlar yig‘ilishgan. Xomutovlar uyida mashhur geolog D.L. Ivanov, surgundagi inqilobchi journalist va yozuvchi G.A. Lopatin, zoolog va geograf V. Oshanin va boshqalar doimiy bo‘lishar edi. Odatda u yerda N.A. Seversov, A.P. Fedchenko rafiqasi bilan, I.V. Mushketovning o‘zi Toshkentga kelgari vaqtlarida qatnashishgan. Shunga o‘xhash to‘garak birinchi marta Toshkentda 1869 yilda tashkil topgan². Bu to‘garak a’zolari asosan Toshkentning turli muassasalar xizmatchilarini va tadqiqotchilarni ekspeditsiyasi vaqtida o‘lkaga kelgan olimlardan iborat bo‘lgan. Boshida to‘garak yig‘ilishlari ahyon-ahyonda bo‘lgan va tasodifani tashkil etilib qolningan. O‘zMAdagi saqlanib qolgan bayonnomalarga qarab baho berilsa, muzokaralar turli-tumanligi bilan ajralilgan turganligini ko‘rish mumkin. Ko‘rsatib o‘tish zarurki, bu yig‘ilishlarning o‘sha davrdagi ajoyib ekspeditsiyalar va kashfiyotlar haqidagi ma‘lumotlar muhokama markazida bo‘lgan.

To‘garakning faol a’zosi bo‘lgan tog‘ muhandisi A.S. Tatarinov markaz bilan yozishmada shunday fikrlarni aytgan: “biz uchun birimizga kerakli ma‘lumotlarni berish jarayonida shunga amil bo‘ldikki, Turkiston zamini bizning ona vatanimiz emas, o‘lkadagi bizga qadrli bo‘lishi mumkin bo‘lgan bayrog‘imiz yo‘k. Va bizlar ham o‘sib-birimizni bog‘lab turuvchi kuchga ega bo‘lmagan holda tarqalishimiz mumkin”³. Bu fikrdan ko‘rinib turibdiki, Turkiston o‘lkasini har tomonlama o‘rganish orqali foydalanim qolishga haraka qilishgan. Shunga o‘xhash fikrlar Toshkentda ilmiy jamiyat tuzilishi lozimligi xaqidagi karorga olib kelgan. Yuqorida aytib o‘tilgan to‘garakning tashabbuskor a’zolari ilmiy jamiyat tuzish uchun asos keltirib o‘tilgan xat bilan Turkiston general-gubernatoriga murojaat qilishgan. Bu xatda quyidagilar keltirilgan: “Yaqindagina Rossiya tarkibiga kirgan O‘rta Osiyo yerlari o‘z tabiatining, aholisining xilmalari, o‘ziga xos madaniyati, rivojlanishi bilan katta qiziqish kastan.”

² Донцова ЗН. Туркестанский отдел Русского Географического общества в дореволюционный период (1897–1917 гг.). Дисс ... на соиск уч степ канд геог наук. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1951. – С. 125-126.

³ O‘zMA I-591-fond, 1-ro‘yxat, 2-yig‘majlid, 73-varaq.

etadi⁴. Shuningdek, O'rta Osiyoning egallab olingan qismi har tomonlama o'rganilayotgani, ammo bunda birdamlik yo'qligi haqidagi fikrlar ham aytib o'tilgan.

To'garakda faoliyat yuritganlarning ma'lumotiga ko'ra, Tarbag'atoydan boshlab to Zarafshongacha, Orol dengizidan to Issiqko'Igacha tashrif buyurgan tadqiqotchilar turli xil boshqarmalardan yoki olimlar jamiyatlaridan jo'natilgan. O'lkani o'rganish borasida ishni bunday tashkil etish samara bermasligi aytilgan. O'rta Osiyo xaqidagi ma'lumotlarning markazga jo'natilgan hamda jo'natilmaganlarini arxivda saqlash masalalarining yig'ilishlarda asosiy muammo sifatida bayon etilgani bejiz emas. Chunki O'rta Osiyo xaqidagi ma'lumotlarni bir joyda jamlash va guruhlash ahamiyatli bo'lishi ta'kidlangan.

Yuqoridagi fikrdan kelib chiqib, 1869 yilda Toshkentda O'rta Osiyo jamiyatni deb nomlangan olimlar jamiyatini tashkil etishgan. Unda O'rta Osiyo sanoati, savdosi, tabiiy boyliklari, statistikasi, etnografiyasi, geografiyasi va tarixiga oid barcha ma'lumotlarni yig'ish, kayta ishslash va tarqatish ko'zda tutilgan.

Keyinchalik Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlar jamiyatining Turkiston bo'limi (1870 y.), Turkiston ommaviy kutubxonasi (1870 y.), Toshkent kimyo laboratoriyasi (1870 y.), Turkiston Harbiy okrugi harbiy topografiya bo'limi qoshidagi Toshkent astronomiya va fizika observatoriysi (1873 y.), Turkiston xalq muzeyi (1880 y.), Turkiston qishloq xo'jaligi (1885 y.), Rus texnika jamiyatining Turkiston bo'limi (1891 y.), Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi (1895 y.), Imperatorlik Rus geografiya jamiyatni (IRGJ)ning Turkiston bo'limi (1897 y.), Turkiston tibbiyot jamiyatni (1899 y.), Imperatorlik sharqshunoslik jamiyatining Toshkent bo'limi (1901 y.) va boshqalar tashkil etilgan⁵.

⁴ O'zMA I-361-fond, 1-yo'uxat, 2-yig'majild, 3-4 varaqlar.

⁵ Qarang: Лукин Б.В. Научные общества и их прогрессивная деятельность. Конец XIX–начало XX в. – Ташкент: АН УзССР, 1962. – 344 с.; Назиров А. Е. ЎзР МДАниг Туркистондаги илмий жамиятлар ва ташниятларга доир фонdlари хикма // ЎХ. 2018. №1. – Б. 32-35.

O'lkada ushbu ilmiy jamiyatlar turli yillarda tashkil topgan bo'lib, ularning ko'p qismi 1917–1918 yillarga kelib o'z faoliyatini to'xtatgan.

Bunday jamiyatlardan biri O'rta Osiyo ilmiy jamiyati bo'lib, (ba'zi manbalarda O'rta Osiyo jamiyati ham deb yuritilgan), ushbu jamiyat 1869 yili Toshkentda Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufman ruxsati bilan A.P. Fedchenko boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan tuzilgan, jamiyatning asosiy maqsadi o'lkani har tomonlama o'rganish bo'lgan⁶. Ammo ushbu jamiyat 1872 yilgacha faoliyat yuritgan.

Jamiyat qisqa vaqt faoliyat yuritgan bo'lishiga qaramasdan, uning a'zolari tomonidan o'lkani o'rganishga qaratilgan harakatlari salmoqli edi. Ushbu jamiyat faoliyatiga doir arxiv materiallari hozirda O'zMA I-591 raqamli fondida saqlanmoqda.

Jamiyatning nizomida ta'kidlanishicha:

“1. O'rta Osiyo jamiyatining maqsadi O'rta Osiyoni har tomonlama o'rganishdan iboratdir.

2. Jamiyat O'rta Osiyoning tarixi, geografiyasi, statistikasi, etnografiyasi, tabiiy boyliklari, savdo va sanoatiga oid ma'lumotlarni yig'adi, tahlil qiladi, tarqatadi.

3. O'rta Osiyoga oid ma'lumotlarni ommalashtirish uchun: a) imaviy o'qishlarni tashkillashtirish; b) xabarlar orqali yig'ilgan ma'lumotlarni turli ilmiy jamiyatlarga yetkazish; v) ushbu ma'lumotlarni mahalliy gazetalarda, o'zining to'plamlari va xabarlarida nashr qilish.

Jamiyat o'z muzeyi, kutubxonasi va arxiviga egadir”⁷.

Hujjatlarda ma'lumot berilishicha, jamiyat a'zolaridan Turkiston general-governatorining tog'-kon ishlari bo'yicha maxsus amaldori A.S. Tatarinov jamiyat raisi, Turkiston general-governatori huzuridagi diplomatik amaldor, astronom, kartograf (keyinchalik Rossiya imperiyasining Yaponiya, AQSH va Niderlandiyadagi elchisi) K.V.

⁶ O'zMA I-591-fond, 1-ro'yxat, 3-yig'mujild, 5-varaq.

⁷ O'zMA I-591-fond, 1-ro'yxat, 4-yig'mujild, 3-12-varaqlar.

Struve vitse-rais, Moliya vazirligining Turkiston o'lkasidagi agenti (keyinchalik Rossiya imperiyasining Koshg'ardagi konsuli, tarixchi-sharqshunos) N.F. Petrovskiy kotib va g'aznachi bo'lgan. Manbaladagi ma'lumotlarga ko'ra, jamiyat a'zolari orasida Zarafshon okrugi boshlig'i, general-major A.K. Abramov, Yettisuv viloyati harbiy gubernatori huzuridagi maxsus topshiriqlar bo'yicha kichik amaldori (keyinchalik mashhur tarixchi-sharqshunos, etnograf) N.A. Aristov, general-gubernator devonining maxsus topshiriqlar amaldori M.I. Brodovskiy, Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori, general-major N.N. Golovachyov, Turkiston harbiy okrugi harbiy topografiya bo'limi boshlig'i (keyinchalik IRGJning Turkiston bo'limi raisi, general) S.I. Jilinskiy, Turkiston Harbiy okrugi shtabi katta adyutanti, podpolkovnik (keyinchalik Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori, general-leytenant N.I. Korolkov, general-gubernator ixtiyoridagi amaldor, sharqshunos A.L. Kun, 1-Turkiston o'qchi batalyoni shtab-kapitani (keyinchalik Rossiya imperiyasining harbiy vaziri va Turkiston o'lkasining so'nggi general-gubernatori) A.N. Kuropatkin, general-gubernator devonining maxsus topshiriqlar amaldori, "Turkestanskiye vedomosti" gazeti bosh muharriri N.A. Mayev, Toshkent shahri harbiy boshlig'i (keyinchalik Samarqand viloyati harbiy gubernatori general-leytenant) V.Y. Medinskiy, 7-Turkiston ineyniy batalyoni polkovniki N.N. Rayevskiy, mashhur rus olimi, biolog, geograf va sayyoh A.P. Fedchenko, 9-Turkiston liniya batalyonı mayori (keyinchalik Farg'ona harbiy gubernatori) A.P. Chaykovskiy, o'lka boshqaruvi vakillari S.A. Idarov, Y.D. Yujakov, mahalliy xalq vakillaridan Mirzahakim Dodxo, Saidazimboy Muxammadboev, Hoji Yunusovlar ham ushbu jamiyat a'zolari oo'lishgan⁸. Jamiyatning aksariyat a'zolari keyinchalik o'lkada tashkil opgan boshqa ilmiy tashkilot va muassasalarda ham faoliyat yuritib,

ularning aksariyati keyinchalik IRGJning Turkiston bo'limi a'zolari ro'yxatidan joy olgan⁹.

Yuqorida keltirilgan a'zolar ma'lumotlaridan jamiyatning o'ika boshqaruvi uchun naqadar ahamiyatli bo'lganini bilish mumkin. Zero, jamiyatga general-gubernatorlik boshqaruvidagi ko'plab shaxslarning a'zo bo'lganligi ularni qandaydir lavozimni egallaganligi bilan izohlanmaydi. Aksincha, jamiyat a'zolarining ko'pchiligi o'lkada harbiy yoki diplomatik sohadan tashqari boshqa bir ilmiy soha bo'yicha ham faoliyat yuritgani bilan izohlanadi.

Arxiv hujjatlardagi ma'lumotlarga ko'ra, jamiyatning har bir a'zosi yiliga 10 rubl miqdorida a'zolik badali to'lagan¹⁰.

Afsuski, O'rta Osiyo jamiyatimperiya hukumati tomonidan taqiq qilinadi¹¹ va 1872 yilning boshida o'z faoliyatini to'xtatadi. Arxiv hujjatlari orasida jamiyat to'satdan ish faoliyatini to'xtatish sabablarini ko'rsatib beruvchi aniq hujjat yo'q. 1872 yilda jamiyat a'zolarining yig'ilishi bo'lib o'tgan. Yig'ilish raisi o'z ma'rurasida bir illik ishlar natijalarini ko'rsatib o'tgan, kelgusi masalalar ustida japiroq. Uning ma'ruzasi boshlangan ishlarni yakunlash haqidagi aniq intilishlar bilan yo'g'rilgan edi. Ko'rinish turibdiki, jamiyatning boshqa yig'ilishlari bo'lmagan va u o'z faoliyatiga yakun yasagan¹².

Jamiyat faoliyatidagi yozishmalar tahliliga ko'ra, uning tugatilishi quyidagi sabablarga bog'liq bo'lgan:

1. Mahalliy ma'muriyat, xukumat idoralari va ilmiy jamiyatlar tomonidan aniq moliyaviy ko'mak va boshka yordam turlarining mavjud bo'lmaganligi.

2. A'zolarining diqqati O'rta Osiyo jamiyatini va Tabiatshunoslar jamiyatini Turkiston bo'limi orasida bo'linib ketganligi.

⁹ Назаров А. ЎзР МДА И-69 фондидан – Ўрга Оснёлари тарихий-географик тадқикотлар бўйича мухим маъни // Ёш шарқшуносларининг академик Убайдулла Каримов номидаги XV иттифоатий конференцияси тезислари тўплами. – Тошкент, 2018. – Б. 23-27.

¹⁰ О'зМА I-591-fond, 1-ю'хат, 6-yig'majild, 2-2-orqa varaqlar.

¹¹ Qarang: Туркестон: Россия Туркестони, Кўкон, Бухоро ва Гулжага саёҳат кайдлари [Матн] Ю. Сайлер. Тарж: З.А. Сандобобов. – Тошкент: "О'zbekiston", 2019. – Б. 58.

¹² Донцова З.Н. Туркестанский отдел Русского географического общества в дореволюционный период (1897–1917 гг.): Дисс ... на соиск. уч. степ. канд. геог. наук. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1951. – С. 129-130.

3. Jamiyat tarkibining beqarorligi va rahbarlarning, a'zolarning jamiyat faoliyatiga tegishli bo'limagan xizmat safarlariga ko'p borishlari.

4. Barcha shartlarni hisobga olgan holda 1873 yilda jamiyat raisi A.S. Tatarinovning Toshkentdan ketishi jamiyatning o'z-o'zidan yo'q bo'lib ketish sabablaridan biri bo'lishi mumkin.

O'rta Osiyo jamiyati tashkil etilgan bir vaqtning o'zida Toshkentda Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlar jamiyatining Turkiston bo'limi o'z faoliyatini boshlagan. A.P. Bogdanov tashabbusi bilan A.P. Fedchenko tomonidan tashkil etilgan.

Asoschi-a'zolarning birinchi yig'ilishi 1870 yil 1 dekabrda bo'lib o'tgan. Bo'lim O'rta Osiyo jamiyati rasman tashkil etilishidan bir oy oldin paydo bo'lgan, ammo keyinchalik norasmiy to'garak tashkilotida eng so'nggisi bo'lib tashkil etilgan. Bo'limning eng faol namoyondalaridan V.V. Trotskiy, M.I. Brodovskiy, A.V. Struve, I.I. Krauze, A.A. Kushakevich, A.S. Tatarinovlar jamiyat ishlarida jonbozlik ko'rsatganlar N.A. Seversev, A.P. Fedchenko, V.F. Oshanin bo'lgan.

Faoliyatining birinchi yilidayoq A.P. Fedchenko rahbarligi ostida 1872 yili Moskvadagi Butunrossiya politexnika ko'rgazmasi Turkiston bo'limi uchun eksponatlar tayyorladi. Bo'lim a'zosi I.I. Krauze 1871 yilda Toshkentda Botanika bog'ini tashkil etgan¹³. Bo'lim qoshida kutubxona tashkil etilgan, uning yig'ilishlarida qiziqarli ma'ruzalar, bo'lim a'zolari esa O'rta Osiyo bo'ylab bir qator ekspeditsiyalar, sayohatlar uyuştirishgan. Ammo bu ilmiy jamiyat ham ko'p faoliyat yuritmagan. Bu ikki ilmiy jamiyat qisqa davr faoliyat yuritganiga qaramasdan, O'rta Osyonni tadqiq etish va ilmiy bilimlarning tarqalishda alohida o'rinn tutgan. Shunday qilib, fanning ilg'or namoyondalari tufayli Toshkentda ilmiy fikrlar va madaniyat markazi – birinchi ilmiy jamiyatlar tashkil etilgan. Ular faoliyati

¹³ Донцова З.Н. Туркестанский отдел Русского географического общества в дореволюционный период (1897–1917 гг.): Дисс ... на соиск. уч. степ. канд. геог. наук. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1951. – С. 131–132.

to‘xtaganidan to XIX asrning oxirgi yillarigacha Toshkentda birorta ham mana shunday keng masalalarni o‘z ichiga olgan mahalliy jamiyat bo‘limgan.

Imperatorlik Rus geografiya jamiyatining Turkiston bo‘limini ochish fikri ilk bor 1870 yilda paydo bo‘lgan. IRGJ arxivida Markaziy Tyan-shan bo‘yicha mashxur tadqiqotchi F.R. Osten-Saken, o‘sha davrlarda IRGJning birinchi kotibining xati (08.05.1870) saqlanadi. V.D. Dandevilga yozgan xatda u Turkistonda geografik izlanishlar tobora quloch yoygani va Turkistonda geografiyaga qiziquvchi shaxslar ko‘pligi, ular asosiy ishlari bilan birga fan rivojiga ham katta hissa qo‘shishgani haqida yozgan. Ushbu holatlar, F.R. Osten-Saken fikriga ko‘ra IRGJ Toshkent bo‘limini ochishga imkoniyat va ayni vaqt ekanligi, Turkistondagi geografik faoliyat markazi bo‘lib xizmat qilishi, bunday bo‘limni tashkil etish taklifi mahalliy ma’muriyatdan chiqishi kerakligi keltirilgan. Ko‘rinib turibdiki, xatda Turkiston general-gubernatori K.P. Kaufmanning IRGJ vitse-raisi F.P. Litkega Toshkentda IRGJ bo‘limini ochish xaqida rasman munosabati bor¹⁴.

F.P. Litke o‘z javob xatida xabar berishicha, jamiyat kengashi urkistonda ilmiy jamiyat tashkil etilishi zarurligi, bu jamiyat IRGJ bo‘limiga qarashli bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’iy nazar uning faoliyatini doimo qo‘llab-quvvatlanishi aytilgan. Biroq bu davrda ish faqat yozishmalardan nariga o‘tmadi. Bizga noma’lum sabablarga ko‘ra IRGJning Turkiston bo‘limi o‘sha yillarda tashkil etilmagan¹⁵.

Tashkil etilmaganligining sabablaridan biri sifatida Toshkentda faoliyat olib borayotgan ikkita jamiyat mavjudligi bo‘lishi mumkin. Agar bu ikkala jamiyatda xam bir xil tarkibdan iborat a’zolar bo‘lsa, uchinchi jamiyatga zaruriyat bo‘limgan. Aynan o‘sha shaxslarning yana bir xil maqsadni ko‘zlagan uchinchi bir jamiyatga a’zo bo‘lishilari mantiqsizday tuyilgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda F.P. Litkening Turkistonda IRGJ bo‘limini tashkil etish shart emas, faqat

¹⁴ Донцова З.Н. Туркестанский отдел Русского Географического общества в дореволюционный период (1897-1917 гг.). Дисс ... на соиск. уч. степ. канд. геог. наук. – Ташкент: Изд-во САГУ, 1951. – С. 134.

¹⁵ O’sha asar. – В. 135-136.

o'lkada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga rahbarlik qiladigan ilmiy jamiyat bo'lsa bo'ldi degan fikri to'g'ri bo'lishi mumkin.

O'rta Osiyo ilmiy jamiyatni va Tabiatshunoslik, antropologiya va etnografiya havaskorlar jamiyatining Turkiston bo'limi o'z faoliyatlarini to'xtatishi, shunga qaramasdan 25 yil davomida IRGJning Turkiston bo'limini tashkil etishga bo'lgan urinishlar samarasiz bo'lgan. Xivaga yurish, Qo'shon xonligining tugatilishi, Kaspiyoti o'lkalari sarhadlariga siljish ma'muriyat e'tiborini yutib yubordi.

O'sha paytda P.P. Semenov IRGJning vitse-raisi lavozimini egallab turardi. U geografik jamiyatlar masalalarini yaxshi tushunardi va Rossiyaning turli joylarida uning filiallarini ochish uchun xarakat qilgan. Shuning uchun Turkistonda IRGJning bo'limini ochish fikri u tomonidan katta qiziqish bilan kutib olingan. Turkiston boshqa joylardan kelgan tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

IRGJning Turkistondagi bo'limini tashkil etilishi nisbatan kechroq amalga oshirilgan. XIX asrning 90-yillarda o'lkada faoliyat yuritgan bir guruh olimlarning taklifidan so'ng, Samarqand viloyati harbiy gubernatori, general-leytenant N.Y. Rostovsev, keyinroq Turkiston general-gubernatori baron A.B. Vrevskiy IRGJning ma'muriyati bilan bu masalani muhokama qilishgan. Xususan, bo'limni ochilishida mashhur olim, o'sha davrda IRGJning vitse-raisi P.P. Semyonov-Tyanshanskijning hissasi katta bo'ldi. Olim IRGJning oldida turgan ilmiy vazifalarni katta va keng qamrovlligini anglab yetgan holda Turkiston o'lkasida uning bo'limini ochilishi haqidagi fikrni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi¹⁶. Uning harakati bilan jamiyatning Turkistondagi bo'limini ochish maqsadida Rossiya Imperiya Ichki ishlar vazirligi va Moliya vazirligi bilan yozishmalar olib borilgan. 1895 yilning noyabr oyida boshlangan harakatlar bir yil ichida jamiyatning huquqiy asoslari bo'lib xizmat qilgan hujjatlarni qabul qilinishi bilan yakunlangan.

¹⁶ Пуговкина О.Г. Источники по истории изучения ТОИРГО // Вестник Каракалпакского отделения АН Республики Узбекистан. 2019. № 1, – С. 84-88.